



XURSHID DO‘STMUHAMMAD HIKOYALARIDA BOSH QAHRAMON TALQINI

Sadoqat Odilova Abduqodir qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
1-bosqich tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207277>

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada badiiy asarda bosh qahramon, obraz masalasi o‘rganiladi. Muallif bosh qahramon yaratishda nimalarga asoslanganligi, bosh qahramon xarakterini ifodalashda qanday unsurlardan foydalanganligi tahlil ostiga olinadi. Birinchi darajali obrazlarning asardagi vazifasi va voqealar rivojidagi ahamiyatiga e’tibor qaratiladi.*

***Kalit so‘zlar:** bosh qahramon, obraz, personaj, xarakter, ichki konflikt, prototip.*

Badiiy adabiyotda qahramon, obraz, personaj, xarakter va tip degan tushunchalar borki, bir qarashda o‘zaro ma’nodoshdek tuyiladi. Lekin chuqurroq o‘rganib, tahlil qiladigan bo‘lsak, yuqoridagi tushunchalar ayrim jihatlariga ko‘ra bir-biridan farqlanishini ko‘rish mumkin. Bu yerdagi obraz so‘zi keng va tor ma’nolarda qo‘llanadi. Keng ma’noda asardagi barcha detal, narsa-buyum kabilarni ham qamrab olsa, tor ma’noda faqatgina asardagi inson tasvirini nazarda tutadi. Obraz tushunchasi tor ma’noda qo‘llanganda “qahramon” yoki “adabiy qahramon” so‘zi bilan deyarli ma’nodoshlik hosil qila oladi. Asardagi hayvonot dunyosi, asar tili, detallar va adabiy qahramon – barchasi obrazlilik degan umumiy nom ostida birlashadi. Nemis faylasufi Gegel “obraz” haqidagi ilk fikrlarni o‘zining estetikaga oid qarashlari jamlangan asarlarida ommaga taqdim etadi. Ushbu atama rus adabiyotiga Belinskiy orqali kirib kelgan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida esaa “obraz” istilohi XX asrning 20-30-yillarida paydo bo‘ldi. Bu davrga qadar “tasvir”, “timsol” kabi nomlar bilan atalgan edi. Dastlab Aristotelning “Poeziya” asaridan o‘rin olgan va taqlid ma’nosini beruvchi “mimesis” ya’ni obraz so‘zi qanday nom bilan ifoda etilmasin, ayni bir ma’noni ifodalagan.

Ma’lumki, san’atning har qanday turi, jumladan, so‘z san’ati hisoblangan adabiyotning markazida ham inson obrazi turadi. Shunday ekan badiiy obraz deyilganda inson obrazi anglashiladi. Ushbu tushuncha “adabiy qahramon” deb ham yuritiladi. Professor Timofeyevning ta’rificha: “obraz – to‘qima yordami bilan yaratilgan va estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma va ayni chog‘da, konkret manzarasidir”.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Biz voqealar qanday yo‘sinda ifodalanishiga ko‘ra adabiyotni uch qismga ajratamiz: nasr, lirika, drama. Bunda nasriy asar qahramoni nasriy obraz hisoblanadi.

Lirik obrazlar bu hissiy kechinma obrazi bo‘lib, ko‘proq lirik she‘rlarda uchraydi. Bunday asar qahramoni lirik qahramon deb yuritiladi. Ko‘p hollarda esa u shoirning aynan o‘zi bo‘ladi.

Dramatik obrazlar drama qahramonlari sanalib, odatda, bunday asar qahramonlarining xarakteri aniq va keskin qilib yaratiladi. Ular bir-biriga to‘qnashtirish (o‘zaro konflikt) yo‘li bilan ham yaratiladi. Lekin bularning barchasi umumiy holda badiiy qahramon degan nom ostida birlashadi.

Badiiy qahramonlar asardagi tutgan o‘rniga, vazifasiga ko‘ra bosh va yordamchi qahramonlarga ajratiladi. Asar voqealarining markazida turib, syujet liniyasini harakatlantiradigan, yozuvchi ifodalamoqchi bo‘lgan g‘oyani o‘zida mujassamlashtirgan obraz bosh qahramon deb yuritiladi. Yordamchi qahramonlar esa, odatda, personaj istilohi bilan qo‘llanadi. Ba‘zan asar tarkibida bir xil ahamiyatga molik bo‘lgan ikki yoki undan ortiq obrazlar ishtirok etishi ham mumkin. Bu ko‘pincha asar hajmi va janri bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Asar qahramonini yaratishda ijodkor prototipdan foydalanishi ham mumkin. Bunda hayotning o‘zida ham ayrim tiplar bunday vazifani bajaradi. Ba‘zida esa, muallif xayolidagi qahramonni hayotda uchratib qolishi mumkin va bu holda undan ko‘chirma olinadi. Prototip asardagi to‘qima va hayotiylikni omuxtalashtirishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq prototip hayotdagi shaxsning aynan nusxasi emas, balki sayqallangan, tadqiq etilgan va ma‘lum maqsad va vazifaga yo‘naltirilgan shakli desak to‘g‘ri bo‘ladi. Demak, badiiy obraz asardagi voqea-hodisalarning mohiyatini ochibgina qolmay, hayot haqiqatini hayotiy haqiqatni ro‘yobga chiqarish vositasi ham hisoblanadi.

Badiiy asarda inson hayotini to‘laqonli tasvirlash uchun quyidagi to‘rt unsur bo‘lmog‘i dardkor:

- Umumlashmalik;
- konkretlilik, individuallilik;
- badiiy to‘qimadan foydalanish;
- tasvirda emotsionalikka erishish .

Bular – badiiy obrazning asosiy jihatlari sanaladi, ularni shartli ravishda, alohida-alohida o‘rganib tahlil qilish badiiy obraz tuzilishini, tabiatini va vazifasini anglashga yordam beradi.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Ijodkor badiiylik yaratishga kirishar ekan, asar qahramonlarining aniq va individual xususiyatlari bilan bir qatorda umumlashma xususiyatlarga ham alohida e'tibor qaratadi. Adabiy qahramondagi umumlashma jihatlarda o'quvchi o'zini ko'ra olsagina, u tipiklashadi. Shu bilan bir qatorda badiiy adabiyotdan asosiy maqsad: kitobxonning qalb tug'yonlariga ta'sir ko'rsatishdan iborat. Masalan, o'qiguvchi qahramonga qo'shilib kulsa, yig'lasa, o'yg'a tolsa, zavqlansa, nafratlansa, g'azablansa, ana o'shanda asar o'zining emotsiallik vazifasini bajargan bo'ladi.

Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning nafaqat yirik epik asarlaridagi, balki hikoya janrida ishtirok etgan qahramonlar ham o'ziga xos vazifaga, "yuk"ka ega. Ular kitobxonga faqatgina emotsia berib qolmay, qandaydir g'oyaviy-badiiy maqsadga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Masalan, yozuvchining "Saf" hikoyasini olaylik. Ushbu kichik asarning bosh qahramoni Rayim chol. U mahallada to'y-tomosha bo'ladimi, yoki aza – barchasida yo'lboshi bo'lib, mahalla-ko'y erakaklarini yig'ib, o'zi safning boshida boradi. U dastlab, mahallaga aralasha boshlagan kezlar safning oxirida edi. Yillar o'tib, yoshiga yosh qo'shilib yo'lboshiga aylanadi. U chiqib yo'l boshlamaguncha hech kim qimir etmaydi, kutadi. Hikoya, asosan, bosh qahramonning o'y-xayollaridan, hayotiy mushohadalaridan iborat. Yozuvchi hikoyadan ko'zlagan maqsadini bosh qahramonning nutqidan, uning hayotiy xulosasi o'laroq berishga qaror qiladi. Ya'ni saf – bu go'yoki hayot kabidir. Uning oxirini hayotning boshlanishiga, qatorning boshini esa uning intihosiga mengzaydi. Sababi safning boshida hamisha yoshi ulug'lar, keksalar. Oxirida esa, safga endigina qo'shilgan yoshlar. Vaqt o'tgani sayin oxiridagi odam boshiga qarab siljiydi, o'rnini o'zidan keyin keladigan insonga bo'shatib boraveradi. Shu tariqa o'zi ham safni tark etishga majbur bo'ladi. Xuddi bu dunyo hayotidagi kabi. Yozuvchi bosh qahramon tasvirini berar ekan, na uning tashqi, na ichki portretini chizadi. Faqatgina uning xatti-harakatlarini shunday mahorat bilan o'quvchiga yetkazib beradiki, kitobxon o'zi ushbu obraz haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'ladi. Bunda ijodkor yuqorida qayd etilgan har to'rttala unsurdan ham o'z o'rnida foydalanganligini ko'ramiz.

Adibning yana shunday bir hikoyasi borki, u ham insonning ichki o'ylari, o'zi bilan o'zi o'rtasidagi to'qnashuv ustiga qurilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu ijodkorning "Iffat" yoki "Mahzuna" nomli kichik asaridir. Hikoyaning bosh qahramoni sarlavhada keltirilganidek, Mahzuna ismli juvon. Muallif bu obrazga shunday nom berishi ham bejizga emas. Chunki ayolning ismi uning ruhiyatini ham aks ettirib turgandek go'yo. Hikoya telefonning qattiq jiringlashidan boshlanib,



Mahzuna qo‘ng‘iroqqa javob berishi bilan yakunlanadi. Ammo shu oraliq vaqtda qahramon kechinmalari o‘quvchiga mufassal yetkazib beriladi. Tabiatan o‘yin-kulguni, begona davra va begona muhitni u qadar sevmaydigan bu juvon erining qiyin qistovi ostida u bilan mehmondorchilikka borishga rozi bo‘ladi. U yerda esa, Bo‘rivoy Sobitovichning nigohi ta‘qibiga uchraydi. Suyjet liniyasini kuzata turib davradagi ayollar bunday xushomad va o‘tkir nigohlarga o‘rganib ketganini va bu ular uchun oddiy hol yoki “norma” ekanini ko‘rish mumkin. Lekin Mahzuna uchun unday emas. U orini, iffatini har nedan yuqoriga qo‘yadigan haqiqiy o‘zbek ayoli.

“...u kishi Mahzunaning ko‘ziga tikilib turganini Mahzuna ancha kechikib payqadi – o‘grilik ustida qo‘lga tushgan odamdek hurkib, duv qizardi, ko‘zini olib qochdi, shoshib qo‘lini stol ostiga yashirdi...”. Ushbu parchadan ham anglashiladiki, ayol bunday davralarga, bunday behayo nigohlarga o‘rganmagan. Ziyofat davomida juvon o‘zini qafasga solingan qushday his qiladi – na u yerda rohat topa oladi, na uchib keta oladi. Ziyofatda ishtirok etayotgan Mahzuna bosh ko‘tarib birovning yuziga tik qaramaydi, erining biqiniga tiqilib, non chimdigan bo‘ladi. Uyaladi. Yoki yana bir o‘rinda e‘tibor berish mumkinki, Bo‘ri Sobitovichning unga palto kiyishga yordam bermoqchi ekanini ko‘rgan ayol holati quyidagicha tasvirlangan: “...Mahzuna talvasaga tushdi, azbaroyi tipirchilab qoldi...”. Bu bilan yozuvchi, avvalo, hikoyaga nom berishda qanchalik zukkolik qilganini yana bir bor isbot etadi. Bundan tashqari bosh qahramonning ichki kechinmalarini o‘quvchiga yetkazib berishda tasvirda emotsiallik unsuridan mohirlik bilan foydalanilgan. Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalariga xos bo‘lgan muhim jihatlardan biri ham ayni emotsiallikka alohida urg‘u qaratilishi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Do‘stmuhammad X. Hijronim mingdir mening // Turon zamin, 2023.
2. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –T.: O‘qituvchi.1980.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T.: O‘zbekiston. 2002.
4. Qozoqboy Yo‘ldosh. Roman va bugungi o‘zbek romanchiligi // “Sharq yulduzi”, 2011-4.
5. А. Толстой. О литературе, М., 1958.